

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH NAZORATIGA TAYYORLASH METODIKASI

Ahmadaliyeva Gulhayo Asqarali qizi

Ilmiy rahbar:

Rajabova Nodirabegim Komilovna

Annotatsiya

Tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash nazoratiga tayyorlash metodikasining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlar, o'qitish strategiyalari hamda interfaol usullarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, PIRLS talablari asosida o'quvchilarning matn bilan ishlash, tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari asoslab berilgan. Tезis natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va xalqaro baholash tizimiga tayyorgarlik samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, metodika, o'qitish strategiyasi, interfaol usullar, xalqaro baholash.

Kirish

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini xalqaro darajada baholash va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini aniqlash va uni xalqaro mezonlar asosida baholash jarayonida **PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)** tadqiqotining ahamiyati beqiyosdir. Mazkur xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning matnni o'qish, tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va amaliy hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning funksional savodxonligini, mustaqil fikrlashini va o'qish madaniyatini shakllantirishdan iborat. Shu sababli PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlikni to'g'ri tashkil etish, o'qish savodxonligini baholashga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatga aylangan. Boshlang'ich sinf davri o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish, tahliliy fikrlash, matnni anglash va muloqot madaniyatini shakllantirishning eng muhim bosqichidir. Shu bois o'qituvchilar tomonidan PIRLS

baholash tizimi talablari asosida dars jarayonini tashkil etish, o'quvchilarda matn ustida ishlash strategiyalarini rivojlantirish, savol-javoblar orqali chuqur anglashni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tezida boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash nazoratiga tayyorlash metodikasi, uning samarali yondashuvlari hamda o'qituvchilar faoliyatidagi metodik innovatsiyalar tahlil qilinadi. Shu orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini oshirish, ta'lim sifatini xalqaro talablarga moslashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash nazoratiga tayyorlash metodikasini ishlab chiqishda tizimli, kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlarga asoslanildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar, dars shakllari va baholash usullarining samaradorligi o'rganildi. Ushbu metodik yondashuv o'quvchilarda o'qish jarayonini faollashtirish, matnni tahlil qilish va tushunish ko'nikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi.

Metodika ishlab chiqishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili, faol o'qish strategiyalarini qo'llash, integrativ yondashuv va refleksiv o'qitish usullari asos qilib olindi. Har bir o'quvchining o'qish sur'ati va matnni anglash darajasi individual tarzda hisobga olindi. O'quv jarayonida o'qishdan oldin, o'qish paytida va o'qishdan keyin bajariladigan topshiriqlar tizimi orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, asosiy g'oyani anglash, matndan dalillar topish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlantirildi. Tadqiqotda kuzatuv, suhbat, test sinovlari, diagnostika va pedagogik tajriba metodlari qo'llanildi. Tajriba jarayonida PIRLS talablariga mos namunaviy o'qish matnlari asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. O'quvchilarning o'qish tezligi, tushunish darajasi va tahliliy fikrlash ko'rsatkichlari muntazam ravishda baholab borildi. Metodik tajriba uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorlov bosqichida PIRLS baholash mezonlari o'rganilib, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi; asosiy bosqichda interfaol mashg'ulotlar, testlar va amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarning o'qish va tushunish kompetensiyalari rivojlantirildi; yakuniy bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, samaradorlik baholandi. Metodika boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun PIRLS xalqaro baholash tizimiga tayyorlanishda muhim o'quv-uslubiy asos bo'lib, o'qish savodxonligini oshirish, tahliliy fikrlashni rivojlantirish va xalqaro talablarga mos ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash nazoratiga tayyorlash jarayonida o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi hozirgi ta'lim tizimida keng muhokama etilayotgan dolzarb

mavzulardan biridir. PIRLS baholashining asosiy maqsadi o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matnni tushunish va tahlil qilish darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining metodik yondashuvi hal qiluvchi omil sanaladi. O'tkazilgan tajriba va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi ularning o'qish jarayoniga bo'lgan motivatsiyasi, o'qituvchi tomonidan tanlangan dars shakli hamda topshiriqlarning mazmuniga bevosita bog'liq. O'quvchilarda o'qishdan zavq olish, matndan ma'no chiqarish, asosiy g'oyani anglash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun dars jarayonida interfaol metodlardan "Insert", "Klaster", "Tushunchalar tahlili", "Savol-javob tahlili", "Venn diagrammasi" kabi usullardan foydalanish samarali natija beradi. PIRLS talablari asosida o'qish savodxonligini baholashga tayyorlashda o'qituvchilarning malaka darajasi, o'quv resurslarining sifatli bo'lishi va metodik materiallarning yangiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda multimediya vositalaridan, elektron matnlardan va interaktiv topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarni matnga nisbatan faol ishtirokchi sifatida jalb etadi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash nazoratiga tayyorlash metodikasi o'quvchilarning o'qish savodxonligini, matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Metodik yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, asosiy g'oyani anglash va o'qishga ijodiy munosabatni shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, PIRLS talablari asosida ishlab chiqilgan metodika ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning xalqaro baholash tizimida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.